

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE, AND INNOVATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**“HUDUDLARDA IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH:
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
Buxoro shahri, 14-noyabr 2025 yil**

**«УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИКИ В РЕГИОНАХ: ПРОБЛЕМЫ
И РЕШЕНИЯ»
РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
г. Бухара, 14 ноября 2025 года**

**“SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT IN THE REGIONS:
PROBLEMS AND SOLUTIONS”
NATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE**

Bukhara, November 14, 2025

O'zbekiston sharoitida TYoHni to'liq yo'lga qo'yish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Turizm statistikasini yig'ishda yagona milliy metodologiyani ishlab chiqish;
2. Turizm sohasi sub'ektlari (turfirmalar, mehmonxonalar, transport tashkilotlari)ning statistik hisobotlarini raqamlashtirish;
3. Milliy hisoblar tizimi bilan turizm ma'lumotlarini avtomatlashtirilgan integratsiya asosida bog'lash;
4. Xalqaro tavsiyalar asosida turizm xarajatlari va iste'molini tahlil qilish uchun zamonaviy axborot platformasini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Tourism Satellite Account: Recommended Methodological Framework 2008*, Luxembourg, Madrid, New York, Paris, 2010.
2. *International Recommendations for Tourism Statistics 2008 Compilation Guide*, United Nations, New York, 2016.
3. *Tourism Satellite Accounts in Europe*, Luxembourg: European Union, 2019.
4. Milliy hisoblar tizimi – 2008 (Sistem natsionalnykh schetov 2008).
5. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi hisobotlari, 2024.

BUXORO VILOYATIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Kurbanova Mohinur Xabib qizi

BuxDU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti katta o'qituvchisi, i.f.f.d.

Ikromova Shaxinabonu Ilg'or qizi

BuxDU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada Buxoro turistik mintaqasida barqaror turizm rivojlanishining hozirgi holati kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Buxoroning YuNESKO merosi maqomi mavjud turizm amaliyotlari bilan moslashmagan bo'lib, ommaviy turizmning ekologik va ijtimoiy-madaniy xavflarini muvozanatlash imkoniyati cheklangan. Mazkur ish iqtisodiy foyda bilan merosni saqlashni birlashtiruvchi, "Smart Barqarorlik" konseptual modelini taklif etadi, bu model turizmni innovatsion, diversifikatsiyalangan va barqaror yo'nalishlarda rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: barqaror turizm, smart tourism, smart destinatsion model, smart heritage, diversifikatsiya.

Kirish

Barqaror turizm - bu sayyohlik faoliyatini iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy-madaniy omillarni muvozanatlab rivojlantirishga qaratilgan kompleks jarayon bo'lib, XXI asr turizm rivojlanishining eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Global miqyosda barqaror turizm konseptlari YuNESKO, BMT Barqaror Rivojlanish Maqsadlari va Jahon Turizm Tashkiloti tavsiyalariga muvofiq shakllantirilmoqda, bu esa tabiiy va madaniy merosni saqlash, mahalliy jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash va turizm oqimlarini samarali boshqarish imkonini beradi.

Buxoro viloyati o'zining boy tarixiy merosi, YuNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obidalari, nomoddiy madaniy merosi (maqom san'ati, xalq hunarmandchiligi va an'anaviy marosimlar) bilan O'zbekistonning asosiy turistik markazlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, viloyatda ommaviy turizmning tez sur'atlarda rivojlanishi ekologik yuk, madaniy qadriyatlarning pasayishi va ijtimoiy-madaniy muvozanatning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu maqolada Buxoro viloyatida barqaror turizm rivojlanishining hozirgi holati tahlil qilinadi, mavjud muammolar aniqlanadi va merosni saqlash bilan iqtisodiy rivojlanishni uyg'unlashtiruvchi istiqbolli yo'nalishlar taklif etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - barqaror turizmni rivojlantirish orqali Buxoro viloyatining turistik salohiyatini oshirish, mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlash va madaniy hamda ekologik qadriyatlarni samarali muhofaza qilishdir.

Barqaror turizm tushunchasi va tamoyillari

Barqaror turizm hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirgan holda, kelajak avlodlarning ham sayohat qilish va tabiatdan foydalanish imkoniyatlarini saqlab qoluvchi turizm shakli hisoblanadi.

Barqarorlikning uch ustuni mavjud bo'lib, jumladan, ekologik - atrof-muhitni saqlash, ijtimoiy-madaniy - merosni va mahalliy jamiyatni saqlash, iqtisodiy - samaradorlik va uzoq muddatlilik. Shuningdek, Buxoro turistik mintaqasini misol qilib olganda barqarorlik Buxoro uchun me'moriy merosni asrash, ziyorat turizmining ijtimoiy-madaniy ta'sirini boshqarishni anglatadi.

Buxoro viloyatining barqaror turizm salohiyati

Buxoro viloyati turizm salohiyati jihatidan mamlakatning eng muhim hududlaridan biri hisoblanadi. Barqaror turizmni rivojlantirish kontekstida viloyatning hozirgi holatini tahlil qilish bir necha asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi: iqtisodiy, infratuzilma va madaniy-meros himoyasi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 543-sonli qarorida 2026-yilga qadar turizm sohasida erishilishi lozim bo'lgan aniq ko'rsatkichlar belgilangan. Shu jumladan, xorijiy sayyohlar tashrifi 1,8 millionga, ichki turistlar tashrifi esa 4,1 millionga yetkazish rejalashtirilgan. Bu raqamlar Buxoro viloyati uchun barqaror turizmni rivojlantirishda hukumat tomonidan ilgari surilgan strategik vazifalarni aks ettiradi. Mazkur ko'rsatkichlar barqaror turizmning iqtisodiy yo'nalishini mustahkamlash va mahalliy jamoalar manfaatlarini oshirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Barqaror turizm tamoyillari mehmonxona fondini diversifikatsiya qilishni nazarda tutadi, ya'ni, turistik xizmatlarning turli segmentlarda ta'minlanishi orqali turizm oqimlarini boshqarish va ekologik hamda ijtimoiy yukni kamaytirish mumkin bo'ladi. Buxoro viloyatida mehmonxonalar soni 258 taga, oilaviy mehmon uylari esa 345 taga yetkazish rejalashtirilgan. Bu nafaqat turistik imkoniyatlarni kengaytiradi, balki sayyohlarning turistik tajribasini diversifikatsiya qilgan holda, barqaror turizmni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Buxoro viloyatidagi barqaror turizmni rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri - madaniy merosni himoya qilishdir. Viloyatda mavjud tarixiy obidalar va nomoddiy madaniy merosning saqlanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga kiradi. Shu bilan birga, "Qadimgi Poykent" arxeologiya parkini yaratish va 800 dan ortiq madaniy obyektga restavratsiya choralari ko'rilishi Buxoroning tarixiy merosini saqlash bo'yicha amaliy davlat majburiyatlarini ifodalaydi. Bu esa barqaror turizmning madaniy va ekologik komponentlarini uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Buxoroda barqaror turizm rivojlanishidagi muammolar va cheklovlar

Buxoro viloyati o'zining tarixiy va madaniy merosi bilan O'zbekistonning asosiy turistik markazlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, barqaror turizmni rivojlantirish jarayonida viloyat bir qator tizimli muammolar va cheklovlarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarni uch asosiy yo'nalishda – ekologik, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy-menejment jihatlarida ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Buxoroda barqaror turizm rivojlanishidagi muammo va cheklovlar tahlili

Muammo turi	Aniqlik	Tafsilotlar	Barqarorlikka ta'siri	Ta'sir darajasi
Ekologik muammolar	Suv resurslari va chiqindilar	Turizm oqimining kengayishi natijasida markaziy shaharda suv iste'moli va chiqindilar miqdori oshadi	Suv resurslariga bosim, chiqindilar boshqaruvi muammolari	Yuqori
	Transport va havoning ifloslanishi	Eski Shahar hududida transport harakati haddan tashqari ko'payadi; "yashil transport" infratuzilmasi yetarli emas	Havoning ifloslanishi, transportning ekologik yukini kamaytirishning yetishmasligi	O'rta
Ijtimoiy-madaniy muammolar	Mahalliy aholi va turizm manfaatlarini muvozanati	Tarixiy restavratsiya turistik obyektlarga aylantiriladi, mahalliy	Ijtimoiy barqarorlik pasayishi, mahalliy jamoalarning	Yuqori

		aholi markazdan siqib chiqadi	manfaatlarining cheklanishi	
	Nomoddiy merosning yetarli integratsiya-lashmasligi	E'tibor asosan me'moriy inshootlarga qaratilgan; maqom san'ati, hunarmandchilik, an'anaviy urf-odatlar turistik tajribaga to'liq kiritilmagan	Madaniy barqarorlik va turistik tajribaning diversifikatsiyalashuvi cheklanishi	O'rta
Iqtisodiy va menejment muammolari	Mavsumiy turistik oqimning notekisligi	Turistik tashriflar asosan bahor va kuz oylariga to'planadi	Infratuzilma va ish o'rinlarining yil davomida notekis bandligi, iqtisodiy barqarorlik pasayishi	O'rta
	Daromadlarning notekis taqsimlanishi	Daromadlar faqat yirik mehmonxona zanjirlari va markaziy obidalarda to'planadi, kichik mahalliy biznes foyda ololmaydi	Mahalliy iqtisodiyotning yetarlicha rivojlanmasligi, turizm foydasining notekis taqsimlanishi	Yuqori

Barqaror rivojlanish istiqbollari va amaliy yechimlar

Buxoro turistik mintaqasida barqarorlikni ta'minlash uchun kompleks va innovatsion yondashuv zarur. Birinchidan, Smart Heritage va texnologik yechimlar taklif qilish. Eski shaharda turistlar oqimini kuzatish va kamroq gavjum joylarga yo'naltirish, raqamli madaniyatni targ'ib qilish, ya'ni, nomoddiy merosni audio, VR va AR texnologiyalari orqali interaktiv tarzda jonlantirish.

Ikkinchidan, ijtimoiy va madaniy barqarorlikni ta'minlash maqsadida mahalliy aholining turar joy sharoitlarini yaxshilashga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirish, hamda hunarmandchilik ustaxonalari, oilaviy taomlar va mahalliy marosimlar orqali madaniy qadriyatlarni saqlash.

Uchinchidan, velosiped va elektromobillardan foydalanadigan turistlar uchun chegirmalar va maxsus infratuzilmani tashkil etish, mehmonxonalarda suv va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va ekologik faoliyat yurituvchi muassasalarga soliq imtiyozlari berish.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro turistik mintaqasida barqaror turizm rivojlanish istiqbollari yuqori, chunki qonunchilik bazasi va davlat dasturlari mavjud. Biroq, bu salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarish uchun infratuzilmani kengaytirish bilan birga, madaniy merosni himoya qilish va mahalliy aholi manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan tizimli "Smart barqarorlik" siyosatini amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jeong, J. Y., Karimov, M., Sobirov, Y., Saidmamatov, O., & Marty, P. (2023). Evaluating culturalization strategies for sustainable tourism development in Uzbekistan. *Sustainability*, 15(9), 7727.
2. Usmanovich, R. D. (2025). Sustainable Tourism Resources and Development in Uzbekistan: Strategies, Challenges, and Future Prospects. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 6(1), 240-247.
3. Akhunova, S., & Askarov, F. (2023). Perspectives for the Further Development of Smart Tourism in Uzbekistan. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(maxsus son).
4. Karimov, M., Okmullaev, R., Marty, P., & Saidmamatov, O. (2025). Tourism Sustainability in Uzbekistan: Challenges and Opportunities Along the Silk Road. *Economies*, 13(9), 250.

Baxtiyorova Nilufar. BUXORO ZIYORAT TURIZMI: YANGI DAVR MA'NAVIY VA IQTISODIY STRATEGIYASI.....	438
Haydarova Dilora Ixtiyorovna, Mavlonova Ruxangiz Mirfayz qizi. TOG' VA CHO'L HUDUDLARIDA PIYODA SAYR (TREKKING) JARAYONINI TASHKIL ETISH VA XAVFSIZLIK QOIDALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	441
Farmanov Erkin Alimovich, Muzaffarova Dilnoza To'xtasin qizi, O'ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZM RIVOJLANISHIDA TRANSPORT INFRATUZILMASI VA XIZMATLARINING ROLI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	443
Axmatova Moxigul Ergash qizi, Yusupova Dilnoza Ixtiyer qizi. KO'NGILOCHAR TURIZM TURLARI VA SHAKLLARI.....	448
Husenova Madina Farxodovna. BARQAROR TURIZMDA INNOVATSION YO'NALISH — KVEST TURIZMI.....	450
Ismoilova Furuza Ulug'bek qizi. HUDUDDA TIBBIYOT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDIY IQTISODIYOTNING BARQAROR O'SISHINI TA'MINLASH: QABUL QILUVCHI MAMLUKAT UCHUN AFZALLIKLAR.....	453
Orziev Kuvonchbek, Shafoat Kadirova Khabibulloevna. UTILIZING ADVANCED STRATEGIC MANAGEMENT FRAMEWORKS FOR THE RESILIENT AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM IN BUKHARA.....	456
Kamolov Xudoyor Zoyirovich. XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TURIZM SOHASINING STATISTIK HISOBINI YURITISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	459
Kurbanova Mohinur Xabib qizi, Ikromova Shaxinabonu Ilg'or qizi. BUXORO VILOYATIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	461
Maxmudova Nodira Uktamovna, Olimova Marjona Obidovna. O'ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL TURLARDAN FOYDALANISH.....	464
Nuriddinova Niginabegim Fazliddin qizi. BUXORO VILOYATIDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH: PILOT LOYIHA MISOLI.....	465
Toshev Nurbek Janon o'g'li. TURIZM XIZMATLARINI BARQAROR TURIZM TAMOIYILLARI ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MODELI.....	469
Turobova Nilufar Avazovna. O'ZBEKISTONDA MEHMONXONA XIZMATLARINI BARQAROR TURIZM TAMOIYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	472
Жабборовна Жасмина Умурбековна. DIGITAL HERITAGE BUKHARA — ЦИФРОВОЕ СОХРАНЕНИЕ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ.....	474
Xalim-Zade Aziza Shuxratovna. BUXORIY IZIDAN MARSHRUTI ASOSIDA BUXORO VA SAMARQAND VILOYATLARIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	478
Xayrullayev Raxmonjon. KIBERSPORT TUSHUNCHASI VA UNING GLOBAL MIQYOSDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	482
Raxmonova Nilufar Yorqinovna, Sodiqova Salomat Odil qizi. BARQAROR TURIZMNING RIVOJIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	487
Alimova Shaxnoza Oktyamovna, Ruziboyeva Sarvinoz Kaxraman qizi, BUXORO VILOYATIDA BARQAROR AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBA VA UNING QO'LLANISH IMKONIYATLARI.....	489
Saydumarova Dilshoda. PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF ENGLISH-LANGUAGE TOURISM: INNOVATIVE APPROACHES AND INTERNATIONAL PRACTICES.....	492
Panjjiyev Abdullo Ixtiyor o'g'li. O'ZBEKISTONDA TARIXIY VA ZIYORAT TURIZMI UCHUN MAVJUD IMKONIYATLAR VA SOHADAGI MUAMMOLAR.....	494

3-SHO'BA. BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA ZAMONAVIY MARKETING VA MENEJMENT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH.....498

Toxirov Javlon Raximovich, SAVDO XIZMATLARINI KO'RSATISHDA KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING IMKONIYATLARI.....	498
--	-----